

KENAGAS QAVMLARING KELIB CHIQISHI VA BUXORO XONLIGI (AMIRLIGI)DAGI
SIYOSIY JARAYONLARDAGI O'RNI

Beknazarov Javoxir Azimjon o'g'li

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti. Ijtimoiy va Gumanitar fanlar kafedrası o'qıtuvchisi

Annotatsiya: Kenagaslar o'zbekning 92 bovlik urug'laridan biridir. Ularning siyosiy jarayonlardagi o'rnini quydagi maqola orqali ko'rib o'tamiz. Kenagaslarning mavqei xonliklar davrida juda ham kuchayadi. Ayniqsa Ashtarxoniy hukmdor Abulfayzxon davrida biz bunga guvoh bo'lamiz. Bu qabila sardorlari Shahrisabz va Kitob beklklarini merosiy boshqarishgan. Kenagaslarni Amir Rahimbiy va Amir Nasrullo o'zlariga tobe etganlar. Ulardan keyingi hukmdorlar davrida mustaqil faoliyat olib borishgan.

Kalit so'zlar: Kenagas, Mang'it, Qo'qon bilan aloqalar, Rajab sulton, To'ydagi qirg'in, Kenagaslarning bo'ysundirilishi.

Tarixdan bizga ma'lumki: O'zbekiston davlatchiligida hokimiyat tepasiga yirik bir sulola vakili kelib, hukumatni o'z qo'lga olgan va hokimiyatni boshqargan. Yoki ma'lum bir sulola vakillari qo'lida qo'g'irchoq hukmdorga aylanib qolgan. Mana shunday siyosiy jarayonlarda hokimiyatda saroy to'ntarishlari, tashqi va ichki siyosat bevosita shu sulola, qabila, urug' vakillari nazoratida bo'lgan. Ayniqsa Buxoro xonligida (keyinchalik amirlik) shayboniylar va ashtarxoniyalar sulolalari davrida mang'itlar va kenagaslar eng baland mavqeiga ega edi va ana endi mavzuning tub mohiyatini anglab, fikrimizning davomini kenagaslarning kelib chiqishi va siyosiy jarayonlardagi ta'siri xususida davom ettirsak. Kenagaslar o'zbek urug'larining yirik bir tarmog'idir. Said Mansur Olimiyning "Buxoro Turkiston Beshigi" asarida aytilishicha kenagas so'zi *ortiga quvmoq* degan ma'noni bildiradi. Karim Shoniyozovning "O'zbek Xalqining Shakllanish Jarayoni" asarida Kenagas qabilalari alohida ko'chmanchi qabilalardan tashkil topgan bo'lib, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanadi deb yozadi. Hozirgi O'zbekiston hududlariga kirib kelib, mahalliy aholi bilan aralashgan va keyinchalik XX-asr boshlarida o'zbeklar tarkibiga butunlay singib ketgan va o'zbekning 92 bovli urug'i tarkibiga kiritilgan. Ular Xorazm, Qashqadaryo, Buxoro, Farg'ona, Qoraqalpog'iston, shimoliy Afg'onistonda yashaydilar. Kenagas urug'larining eng yirik tarmoqlari: kirey, abak, ovoqli, taroqli, chuyut va bu urug'lardan tarixdagi eng mashhurlari, o'tmish zarvarqlarida o'chmas nom qoldirgan ochamayli va qayrusoli urug'laridir¹.

Kenagaslar xususan Shahrisabz va Kitob shaharlarida yashab bu shaharlarni benihoya kengaytirib yuborganlar, tojik va chig'atoy aholisini o'z tarkibiga qo'shib olganlar. "Tarixi Abulxayrxoniy" asaridagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbek ulusidagi Kenagaslar qo'shinining chap qanoti - juvangarayada jang qilgan. Abdullaxon II-davrida Kenagaslar yuqori mansablarni egallashgan. Kenagas yetakchilari xonning o'ng tomonidagi a'yonlar qatorida, raisdan keyingi o'rinda bo'lgan. Ashtarxoniyalardan Abdulazizxon davrida esa Soqiy Xo'ja Kenagas Ishkashim (hozirgi Afg'oniston Badaxshon viloyati markazi) viloyatida hokim etib tayinlangan. Kenagaslar va mang'itlar bir biri ila ixtilofda bo'lganlar. Jumlaning dalolati sifatida, Ubaydullaxon davrida Qarshi shahrida Nasab (Tutak) darvoza bo'lgan XVIII-asrda mang'itlar va kenagaslar nizolari avj olib, bu darvozaga o't qo'yib, yoqib yuborishgan keyinchalik Kuyuk Darvoza nomi bilan tarixda nom olgan². Bundan shu narsa aniqki kenagaslar va mang'itlar bir biri bilan murosasiz munosabatda bo'lganlar. Akademik Radlovning "Zarafshonning Shimoli Sharqida Yashovchi Turkiy Qabilalarning Afsonalari" asarida kenagas va mang'it aka-uka bo'lganligi haqidagi rivoyatni keltirib o'tadi. Ana shu rivoyatda ham urush-janjallar tasvirlangan.

¹ Vohidov Sh. Qo'qon Xonligi Tarixi (xonlik tarixi manbalarida). Toshkent-B-1251.

² Poyon Ravshanov. Qarshi Tarixi. Toshkent-2006. B-584.

Kenagas qabilalari XVII-XIX-asrlarda Buxoro xonligidagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan. Ashtarxoniy Abulfayzxon va mang'itlar amiri Haydar davrida qo'zg'olonlar ko'targanligini bizga mahalliy manbalar yetkazadi³. Yana shu o'rinda bir narsani eslatib o'tish joizki, Poyon Ravshanovning ma'lumotlariga ko'ra Abulfayzxon davrida siyosiy kuchga ega bo'lgan Ibrohim Kenagasning ota bobolari Shayboniyxon zamonidan buyon Shahrisabzda hokim bo'lib katta obro'ga ega bo'lgan. Abdurahmon Tolening " Tarixi Abulfayzxon" asarida esa Abulfayzxon davlat ishlarini tashlab qo'yganida kenagaslar aholini talo-taroj qilishgan ekan. Buning misolida 1719 yil bahorida miroxur Ismoil boshchiligidagi 2 ming kishilik Kenagaslar qo'shini Buxoro viloyatidagi Bahouddin qishlog'iga bostirib kirib, u yerda "guli surx" ya'ni qizil gul, lola bayramiga to'plangan ko'p minglik tinch aholini talab, o'ta beayov jabr-zulm qilishgan. Bu yerda mang'itlarga qarshi talonchilik uyushtirilgan. Abulfayzxon davrida Ibrohim Kenagasning amallari ham buni tasdiqlaydi. Muntab ut Tavorix asarida *Ibrohimiy kenagaslarning qayrasoldi urug'idan bo'lganligi aytiladi*. Ibrohim Kenagas mang'itlarga qarshi kurashda Abulfayzxonning hokimiyati to'siq bo'layotganini anglab, bu to'siqni olib tashlash uchun 1722-yilda Samarqandga boradi va chingiz avlodiga mansub Xorazmlik shahzoda va o'zining kuyovi Rajabni Samarqandda Xon deb e'lon qiladi va Abulfayzxonidan norozi boshqa qavmlar ham bu isyonda qatnashadi. Bu paytda Buxoroda bo'lgan F.Benevininig ma'lumotiga ko'ra g'alayon ko'targanlar gohida poytaxtni besh oylab qamalda tutganlar deydi. Ular yordamga qozoqlar va jung'orlarni yordamga chaqiradilar. Afsuski oxirini o'ylab qilinmagan ish natijasida bu talonchi jung'or va qozoqlar Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida yetti yil moybaynida talonchilik ishlarini amalga oshiradilar⁴. Samarqandning Rajab Sulton boshqaruviga o'tishi Buxoro xonligidagi g'alayon sifatida balki mamlakatning zaiflashuvining asosiy sablari sifatida, qozoq va qoraqalpoqlarning (jung'orlarning) 1723-yildan 1730-yilgacha davom etgan qaroqchilikning bir turi desak mubolag'a bo'lmaydi⁵. Qo'qon xoni Abdurahimiy 1725 yil Buxoro xonligining zaiflashganidan foydalanib, 20 ming kishilik qo'shin bilan Xo'jandni, 1726 yil esa O'ratepani, 1732 yil Samarqandni egallagan va Shahrisabzga ham hujum qilgan⁶. Bu yerda Shahrisabz hokimi Hakimbek o'z ukasi Ibrohim otaliqning qizi Oyuchuchuk oyimni Abdurahimiy nikohiga bergan va Q'qon xonligi bilan qarindosh-urug'chilik munosabatlarini yo'lga qo'ygan. Abdurahimiy o'lgach ukasi Abdukurimiy Kenagas oyimni (Oyuchuchuk) o'z nikohiga oladi. Qo'qon xonligi Shahrisabzlik kenagaslar bilan ittifoq tuzib, tog'a jiyalik munosabatlari boshlaydilar. Minglarning kenagaslar bilan tuzgan ittifoqi XIX-asning 60-yillariga qadar davom etdi⁷. Eron podshosi Nodirshoh Buxoro xonligini bo'ysundirgach Xiva xonligi tomon hujum boshlaydi va u Buxoro xonligidagi siyosiy ta'sir doiraga ega qabila vakillarni o'zi bilan Xiva olib ketadi. Yuz qabilasidan Muhammad Rahimbek, mang'itlardan Muhammad Rahimiy, kenagaslardan bo'lsa Olimbekni tanlab oladi. Nodirshoh vafot etgach. Rahimiy-Buxoroga Olimbek esa Shahisabzga ketadi⁸.

Muhammad Rahimiy taxtga kelgach, Shahrisabz hokimi kenagas Olimbek o'n yil davomida mang'itlarga qarshi kurash olib bordi va oxir oqibatda Olimbek Amirning fitnasi qurboni bo'ldi⁹.

³ O'Z.FA Tarix Instituti. Alimova D. Ashirova. O'rta Osiyo Xalqlarining Etnik Tarixi va Mintaqada Yuz Bergan Demografik Jarayonlarning Manbalarida Aks Etishi(XVI-XIX-asrlar I-yarmi). Toshkent-2011.B-33.

⁴ Poyon Ravshanov. Qarshi Tarixi. Toshkent-2006. B-515-516.

⁵ Shodiyev J. Buxoro Amirligi Davlatchiligining Rivojlanishi . Toshkent-2010. B-6.

⁶ Vohidov SH. Qo'qon Xonligi Tarixi(xonlik tarixi manbalarida). B-9

⁷ Muhammad Hakimxon To'ra. Muntaxab at Tavorix. Toshkent-2010. B-232.

Mirza Olim Maxdumhoji. Tarixi Turkiston. Toshkent-2009. B-6.

⁸ Xudoyorxonozoda. Anjum at Tavorix Toshkent-2014. B-115

⁹ Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro Turkiston Beshigi. Buxoro-2004. B-31

Muhammad Yoqub Buxoriyning "Gulshan ul muluk" asarida va Hakimxon To'raning "Muntaxab ut tavorix" asarida ham Muhammad Rahimbiy dastlab Shahrisabzdagi 32 nafar kenagas amirlarini aldab chaqirib, qatl ettirgani haqida yozadi. Amir Rahimbiy kenagas Muhammad Yunusbiyga o'zining ukasi Yovqochtibiyning qizini nikohlab, aloqalarni mustahkamlash niyatini aytib, to'y qilishga vada beradi va barcha yirik kenagas amirlarini to'y bazmiga taklif etadi. Amir to'yga kelgan 32 tadan ziyod beklarni tuttirib, qatl ettiradi. Hatto bular ichida Olimbek va Subhonqulibek bor edi¹⁰. Amir Rahimbiy o'z inisi Qutluqbiy devobegini Shahrisabzga hokim qiladi. Keyingi amirlar hukmronligi davrida kenagaslar o'z siyosatini mustaqil olib borishgan. Rahimbiy o'lgach uning amakisi Doniyolbiy otaliq hukronigi boshlandi. Kenagaslarning Qayrusoldi urug'idan bo'lgan Beknazarbiy Bahodir Buxorodan kelib, Qutluqbiy devonbegini o'ldirilib hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Shahrisabzning oldingi hukmdorlari ochamayli urug'idan edilar. Shu davrdan Qayrusoldi urug'ining hukmronligi boshlandi¹¹. Muhammad Hakimxonning ma'lumotiga ko'ra Beknazarbiy Kesh vohalarini bir butunligini ta'minlab, biror soat ham beklilik ishlaridan uzoqlashmagan, hokimlik ishlarida sadoqatli edi deb yozadi. Uning vafotidan so'ng katta o'g'li Niyozalibiy hokimlikni egallaydi. Amir Shohmurod qayta-qayta Shahrisabzga yurishlar qilsada egallay olmagan ekan. Amir Shohmurod Marvni egallagach, Marv hukmdori Bayramxonning o'g'li Xojixon Shahrisabzga kelib Niyozalibiy qo'lida panoh topadi. Bu vaziyatda Shohmurod Xojixonning topshirilishi uchun 4 ming ashrafiy tillo vada qiladi. Lekin Niyozalibiy aziz mehmonni himoya qilib har qanday taklifni rad etadi. Niyozali Amir Shohmurodga yozgan xatida Buxoroning yetti yillik soliqlarini berganingizda ham Kenagas zotining yalpisini qirib tashlaganingizda ham bu azizni himoyatda tutamiz, bu xom hayolni unuting deydi. Garchi mazhabi shia oqimida ham bo'lsa unga ko'rsatilgan izzat ikromni cheki yo'qdir. Xojixon 1 yil davomida Shahrisabzda mehmon bo'ldi va so'ng Qo'qon xoni Norbo'tabiy huzuriga ketgan¹². Qo'qon xoni Umarxon Samarqandni egallash uchun kelganida Shahrisabz hokimi Niyozqulibiy sovg'a salomlar bilan Qizlisoy mavzeyiga keladi. Bu yerda Umarxon sakson yoshni qarshilagan Niyozqulibiyga otaliq unvonini topshiradi¹³. Qiziq tomoni shundagi bu shaharlardagi hokim lavozimidagi nomzodni amir tasdiqlamagan balki merosiy hokimiyat tusiga kirib qolgan. Niyozalibiy vafot etgach uning to'ng'ich o'gli Muhammad Sodiq devonbegi Shahrisabz ikkinchi o'gli Donyolbiy esa Kitob hokimi bo'ldi. Muhammad Sodiq devonbegi va Donyolbiy to'g'risida Muhammad Hakimxon To'ra ajoyib tariflar va targ'iblarni o'z asarida qoralab o'tadi. Tez orada bu ikki aka-uka kelisha olmay Kitob va Shahrisabz bekliliklari o'rtasida urushlar avj oldi. Bundan xabar topgan Amir Haydar urushga chog'lanib qo'shin tortib kelaveradi. Amirning kelayotganidan xabar topgan aka-ukalar yarshib, urushga tayyorlanadilar. Amir Haydarga qarshi Imom Yaqub mavzeida jangda g'olib bo'ldilar. Muhammad Sodiq devonbegi vafot etgach (1828) Donyolbiy Kitob va Shahrisabz hokimi bo'ldi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon Buxoroga bostirib kelib, aholini talay boshlaydi. Amir Haydar jangga o'tlanib Buxoro tomonga yo'l oladi bu vaziyatdan foydalangan Donyolbiy amirga tegishli bo'lgan bir qancha qo'rg'onlarni egallab oladi. Amir Nasrullo hokimiyatga kelgan davrida Doniyolbiy Chiroqchi shahrini egallaydi va Shahrisabzga qaytib keladi. Bu orada Nasrullo Shahrisabzga hujum qiladi va ikki o'rtada jang bo'lib Amir Nasrullo mag'lub bo'ladi va sulh tuzilib, Donyolbiyga devonbegi unvoni berilgan. Chiroqchi shahri Doniyolbiy tasarrufiga o'tadi. Amirning keyingi yurishlari 1832-1833-1834-yillarda bo'ldi. Nasrullo va Donyolbiy o'rtasida 1836-yilda Kitob shahridagi Qiyqonyog'ochda jang bo'lib o'tadi. Amir Nasrullo mag'lub etiladi. Donyolbiy o'lgach (1840) o'gli Xo'jaqulibiy hokim bo'ldi. Donyolbiy 40

¹⁰ Vohidov SH. Qo'qon Xonligi Tarixi(xonlik tarixi manbalarida). B-1285.

¹¹ Niyoz Muhammad Ho'qandiy. Ibrat ul Xavoqin. Toshkent-2014. B-360

¹² Muhammad Hakimxon To'ra. Muntaxab at Tavorix. Toshkent-2010. B-32.

¹³ Niyoz Muhammad Ho'qandiy. Ibrat ul Xavoqin. Toshkent-2014. B-413.

Xudoyorxonozoda. Anjum at Tavorix. Toshkent-2014. B-220.

yil mustaqil beklidlarni boshqarib, shundan 28 yil Kitobda beklilik hukmini yuritadi. Amir Nasrullo bu vaqtlar oralig'ida bu ikkita shaharga 1856-yilgacha 28 yil davomida 32 marta yurishlar qiladi. 1856-yilda so'ngi yurishda amir Nasrulloning qo'li baland keldi. Bu ikki beklilik amirlikka bo'ysundirildi¹⁴. Amir Nasrullo har yili ikki marta Shahrisabz ustiga lashkar tortib bir oy davomida Humoqulibiy(xujaqulibiy) va Iskandarbiy bilan urushib, sulh tuzib Buxoroga qaytib kelar edi. Nasrullo Shahrisabzni egallagach, Iskandarbekni Buxoroga jo'natadi. Iskandarbekni singlisi Kenagasoyimni Nasrullo o'z nikohiga oladi. Iskandarbekni Nasrullo o'ldirgach Kenagasoyim qasos olish uchun kechqurun yotog'ida yotgan Amir Nasrulloning qulog'iga simob quyib yuboradi. Amir Kenagasoyim va 40 kanizini Buxorodagi arking qudug'iga tashlatadi. Keyinchlaik bu joy childuxtaron deb nomlanib muqaddas joyga aylangan¹⁵. Mang'it amirlari davrida bu siyosiy o'yinlar, urishlar davom etadi. Amir Nasrullo Shahrisabz hokimi Donyolbiy vafotidan so'ng 16 yildan keyin bu beklidlarni bo'ysundirdi. Yuqorida aytganimizdek Amir Nasrullo Donyolbiyga yon bergan tomonlari ham bo'lgan. Ammo Donyolbiyning vorislari davrida bu bekliliklar zaiflashib qolib, Nasrulloning fath etishiga qulay fursat tug'iladi. Nasrullo o'lgach taxtga Amir Muzaffar kelgan. Amir Muzaffar Shahrisabzga hokim etib Amurbekbiyini tayinlaydi. Tez orada Kenagas qabilalari Shahrisabzni Amurbekbiy qo'lidan tortib olib, Hakimbekni hokim qilib ko'taradi. Kitob hokimi Zokirbekni lavozimidan chetlashtirib, Jo'rabekbiyini Kitob hokimi etib tayinladi. Amir Muzaffar bu voqealardan g'azablanib. Kitob va Shahrisabzga hujum qiladi va ikki oy davomida qamal qiladi. Ammo bu qamal natijasiz yakun topib, ikki o'rtada sulh tuzildi¹⁶. Keyingi siyosat va urushlarni Amir Muzaffarning o'gli Abdumalik to'ra va Jo'rabek, Bobobek yagona ittifoqqa birlashib, Amir Muzaffarga va ruslarga qarshi kurashganida ko'rishimiz mumkin.

Xulosa shu bo'ldiki: Kenagas va Mang'it urug'lari doimo ixtilofda bo'lganlar. Buni yuqorida Ashtarxoniylar va Mang'it podsholari hukmronligi davridagi voqealarda ko'rdik. Yuqorida aytib o'tganimizdek Nodirshoh Xorazmga yurish davrida Mang'itlardan Rahimbiyini Kenagaslardan Olimbekni olib ketadi. Nodirshoh o'limidan so'ng bu ikkala sardor kelib, bir Buxoroda biri Shahrisabzda o'z hukmronligini yuritdi. Ana endi mang'itlardan Rahimbiy Amirlik taxtiga o'tirgach bu ikki urug' o'rtasida urushlar kuchaydi. Rahimbiy Mang'it hokimiyatga kelgach nima uchun Olimbek Kenagas amirlikka bo'ysunmadi degan savol tug'iladi. Axir podsho xudoning yerdagi soyasi ekanligi, unga hamma birdek bo'ysunishi kerakligi uning har bir buyrug'i qonun kabidir deyilgan. Shunday bo'lsa podshoga itoatda bo'lmaslikning sababi nima unda. Sababi shuki yuqorida aytganimizdek Kenagaslar Shayboniyxon davridan beri Shahrisabzga hukmronlik qilishgan. Va ular Shayboniylar davrida yirik mavqeiga ega edilar. Kenagaslarning yer mulklari Shayboniylar davrida suyurg'ol sifatida berilgan edi. Ular o'zlariga berilgan mulklarni qattiq muhofazaga olib, mustaqil siyosat olib borishga va bo'ysunmaslikka harakat qilganlar. Kenagaslar Buxoro xonligiga (amirlik) kuch ishlatib bo'ysindirilgan bo'lsa ham ammo ularni mustaqil siyosat yuritishga asoslari bo'lishgan. Kenagas yer mulklari ularga sal kam III-asrdan buyon merosiy tarzda ajdoddan avlodga o'tib kelayotgan edi. Mana shu ularning bo'ysunmasligining asosi edi. Va kenagaslarning ittifoqi juda mustahkam bo'lgan. Har yili amirlik qo'shinlariga qarshi kurash jang qilishga katta kuch va iqtisodiy ahvol yetrlicha bo'lgan. Bir tomondan Qo'qon xonligi kenagaslarni qo'llab quvvatlaganlar. Eng asosiysi hokimlikni

¹⁴ Mirzo Abdulazim Somiy. Mang'it Sulolalari Tarixi Yoki Buxoro Xonligining Inqirozi. Sharq yulduzi. B-132. Fors tilidan Ilhom Sultonov tarjimasi.

¹⁵ Kashko'li Salimiy. Tavorixi Muttaqadimin va Muttaaxirin. Buxoro-2003. B-300. Fors tilidan Narzulla Yo'ldoshev tarjimasi.

¹⁶ Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro Turkiston Beshigi. Buxoro-2004. B-50-57. Fors tilidan Halim Turayev tarjimasi.

boshqargan beklar aqilli va uzoqni ko'zlab siyosat olib borganlar. Rahimbiy hukmronligida Shahrisabzga 4 marta yurish qilinadi. Bu natijasiz yurishlar befoyda bo'lib Amir hiyla ishlatib, bo'ysundiradi. Qisqa davr mobaynida Shahrisabz Kenagaslari amirlikka bo'ysunib turdi. Ammo Rahimbiy o'lgach yana mustaqil bo'lib oladilar. Amir Nasrullo 28 yil davomida yurishlar qilib faqatgina 1856-yilda fath etdi. Ammo uning vafoti bilan Kenagaslar yana mustaqil bo'lib olishdi.

Foydalanilgan Manbalar va Adabiyotlar Ro'yxati.

1. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro Turkiston Beshigi. Buxoro-2004.
2. Kashko'li Salimiy. Tavorixi Muttaqadimin va Muttaaxirin. Buxoro-2003.
3. Mirzo Abdulazim Somiy. Mang'it Sulolalari Tarixi yoki Buxoro Xonligining Inqirozi. Sharq yulduzi.
4. Niyoz Muhammad Ho'qandiy. Ibrat ul Xavoqin. Toshkent-2014.
5. Muhammad Hakimxon To'ra. Muntaxab at Tavorix. Toshkent-2010.
6. Xudoyorxonzoda. Anjum at Tavorix Toshkent-2014.
7. Mirza Olim Maxdumhoji. Tarixi Turkiston. Toshkent-2009.
8. Shodiyev J. Buxoro Amirligi Davlatchiligining Rivojlanishi . Toshkent-2010.
9. Vohidov Sh. Qo'qon Xonligi Tarixi (xonlik tarixi manbalarida).Toshkent
10. O'Z.FA
Tarix Instituti. Alimova D. Ashirov A. O'rta Osiyo Xalqlarining Etnik Tarixi va Mintaqada Yuz Bergan Demografik Jarayonlarning Manbalarda Aks Etishi(XVI-XIX-asrlar I-yarmi). Toshkent-2011.
11. Poyon
Ravshanov. Qarshi Tarixi. Toshkent-2006.